



## STRESSNIG SALBIY O'QIBATLARI: STRESSLI VA MUAMMOLI VAZIYATLARDA O'ZINI-O'ZI BOSHQARISH

*Abduraxmonova Nodiraxon Abduvaliyevna*

*Izboskan tuman 2-son politexnikumi tarbiya fani o'qituvchisi.*

**Annotatsiya:** O'smirlarda informatsion stressnig salbiy o'qibati sifatida: yolg'izlikka moyillik, diqqatning tarqoqligi va parishonxotirlik, doimiy charchash, befarqlik va holsizlik, uyqu rejimining buzilishi, ovqatlanishning izdan chiqishi, sababsiz aggressiyani namoyon etish, o'z-o'zini past baholashi, o'z kuchiga nisbatan ishonchszilik kabi holatlarni ko'rsatish mumkin. Bu esa o'z navbatida pedagoglar, murabbiylar, ota-onalar va yoshlar tarbiyasi bilan shugullanayotgan barcha insonlar oldida farzandlarimizni informatsion va boshqa stresslsrdan ximoyalash kabi muxim vazifalarni qoymoqda.

Kalit so'zlar: stress, psixika, xulq-atvor o'smirlar, axborot vositalari, globallashuv jarayoni, muomala.

### KIRISH

Butun dunyo miqyosida kuzatilayotgan tezkor o'zgarishlar va taraqqiyot psixologik amaliyot soxasiga yangi vazifalarini kirib kelishiga olib kelmoqda. Insonda kuzatiladigan stresslarni tabiatni va kelib chiqish sabablariga bo'gлиq xolatda yoritish maqsadga muvofiq. Jamiyat taraqqiyotinig zamonaviy bosqichi axborot asri hisoblanadi. Globallashuvning oqibati va bir vaqtning o'zida uni ta'minlaydigan omil sifatida axborot oqimini haddan ziyod kengayib ketganini e'tirof etishimiz mumkin. Axborotlar sport, shou biznes va san'at olami yangiliklari bilan cheklanmay siyosiy, ilmiy, badiy, rasmiy, norasmiy va x.k. sohalardagi ma'lumotlarni ham taqdim qilishi bilan birga ularni oson qo'lga kirtish imkoniyati ham paydo bo'lgan.

### MUHOKAMA



Yoshi, kasbi, qiziqishlaridan qatiy nazar xar bir inson axborotlar olamiga kirib boradi, ularni qabul qiladi, o'zlashtiradi, muomalada bo'ladi. Manashu keng qo'lamdagagi axborotlari istemolchilarini katta qatlami sifatida o'smirlarni ko'rsatish mumkin. Sir emaski, zamonaviy o'smir o'z

rivojlanish mohiyatiga ko'ra murakkab dunyoda yashamoqda.

Emotsiyalar somatik sohada (mimika va jest) va fiziologik sohada (yurak urishi va nafas olish) turli o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Emotsiyalar ma'lum qonuniyatlar asosida yuzaga keladi: emotsiyam kuchi va sifati, uni ijobiy yoki salbiyligi bu emotsiyani keltirib chiqargan ehtiyojiarga bogliq.

Emotsiyalarni xususiyatlariga ta'sir qiladigan muhim omil bu vaqtdir. Qisqa vaqtida intensiv sodir bo'ladigan emotsiyalar affekt xislardir, uzoq vaqtida kuchsiz namoyon bo'ladiganlan esa kayfiyat hisoblanadi. Ma'lumki, har bir paydo bo'lgan muammoli vaziyat stressni keltirib-chiqarishi mumkin. Stress insonda nerv tizimining qattiq emotsiyal zo'riqishi oqibatida yuzaga keladigan, kuchli va uzoq davom etuvchi psixologik tanglik holatidir. Stressni insonga safarbar qilivchi ijobiy ta'siri eustress deb nomланади, salbiy ta'siri esa distress deyiladi. Eustress insonga ruxiy kuch beradi, faoliyatga undaydi. Distress odamga salbiy tasir qiladi. Uning oqibati aqliy, jismoniy, emotsiyal va ruhiy zo'riqishga organizmning holdan toyishiga va qon bosimining oshishi, yurak faoliyatining buzilishi, oshqozon yallig'lanishiga olib kelishi mumkin. Stresslar doimo subektiv bo'ladi. O'smirlarda stressni paydo bo'lishi va rivojlanishi bolalik davridagi ijtimoiylashuvga bog'liq.

Xususan, onaning qaysarligi, qattiqko'llligi, talablarni yuqori qo'yishi, birovni fikri bilan xisoblashmaslik, yoki, aksincha onaning passivligi, o'ziga ishonmagasligi bolani stressga tushishiga sabab bo'lishi mumkin. Otasining e'tibori kamligi, aggressivlik va befarqlik bunday xulq-atvor shakllari ota bilan bola o'rtasida identifikatsiya imkoniyatini qiyinlashtiradi. Oilaning konfliktliligi, salbiy muhitning bo'lishi ham ijtimoiylashuvga ta'sir ko'rsatadi. Oiladagi kechgan ijtimoilashuv natijasida o'smir otish davrini boshidan o'tkazayotganligi bois



stresslarga beriluvchan bo‘lib qoladi. Stresslarni bir necha turlarini ko‘rsatish mumkin, ammo ulardan so‘nggi davrlarda ko‘p uchraydigan turi bu informatsion stress hisoblanadi. Informatsion stress emotsional stress turlaridan biri hisoblanadi.

Atrofimizda fan va texnika taraqqiyoti va uni insonga bo‘lgan ta’siri jamiyat va tabiatning tasiridan kuchli va ustun bo‘lib bormoqda. Insoniyat tomonidan to‘plangan va yaratilgan axborot hajmi kengaymoqda va har o‘n yillikda yanada kengayib borishi kuzatilmoque, ammo inson miyasi va uni tashkil etadigan hujayralarning soni o‘zgarmagan, qolaversa ta’limning davomiyligi ortib bormoqda va shuning o‘zi informatsion stress ortishi xavfini tug’diradi. Miyaning o‘z imkoniyatlari axborotni qabul qilishi keng, axborot hajmini ortishi xafli, ammo qisqa muddatda katta hajmdagi axborotni qayta ishlash zaruriyati paydo bo‘lsa bu kuchli asab zo‘rqishini olib keladi va infarmatsion stressni keltirib chiqaradi, ya’ni miyaga kirib turgan axborot hajmi va tezligi, bioiogik va ijtimoiy imkoniyatlarga to‘g’ri kelmasligi ham infarmatsion stress yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Bu yerda axborot hajmi bir omil bo‘lsa, ikkinchidan vaqt kamligi va unga shaxs motivatsiyasi ijtimoiy sabablar ham qo‘silsa miyani o‘z o‘zini himoyalash mexanizmi ishlamay qoladi, va inson o‘zini informatsion stresslardan muxofaza qilaolmay qoladi. O‘smlilar bunday holatda eng zaif tasirchan guruh sifatida namoyon boladi.

O‘smlarda informatsion stressning salbiy o‘qibati sifatida: yolg’izlikka moyillik, diqqatning tarqoqligi va parishonxotirlik, doimiy charchash, befarqlik va holsizlik, uyqu rejimining buzilishi, ovqatlanishning izdan chiqishi, sababsiz aggressiyani namoyon etish, o‘z-o‘zini past baholashi, o‘z kuchiga nisbatan ishonchszlik kabi holatlarni ko‘rsatish mumkin. Bu esa o‘z navbatida pedagoglar, murabbiylar, ota-onalar va yoshlar tarbiyasi bilan shugullanayotgan barcha insonlar oldida farzandlarimizni informatsion va boshqa stresslarda ximoyalash kabi muxim vazifalarni qoymoqda. Bu vazifani amalga oshirish yo‘llarini aniqlash uchun Maxatma Gandining fikrini keltirish o‘rnlidir. M. Gandiga “Globallashuv



jarayoniga qanday qaraysiz?" degan savolni berishganda, u shunday ma'noda javob bergen ekan: "Men tashqaridagi bo'rondan qo'rqib, derazamni yopib qo'ya olmayman, chunki menga toza havo kerak. Shu bilan birga, toza havo kerak ekan deb derazamni katta ochib ham qo'ya olmayman, chunki mening uyimni changto'zon bosib ketishini xohlamayman".

## XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, globallashuv ta'siri natijasida kelib chiqayotgan salbiy holatlarni sun'iy to'siqlar bilan chegaralab bolmaydigan

jarayondir. Shu sababdan har bir inson ozida shaxsiy psixologik xafsizlik imkoniyatlarini oshirishi maqsadga muvofiq. O'zida muxofaza imkoniyatlarini shakllantiribgina qolmay o'smir yoshidagi farzandiga ham to'g'ri tarbiyaviy tasir ko'rsatishi lozim. Bu borada axolini psixologik savodxonligini oshirish dolzarb vazifa sifatida namoyon bo'ladi. Qolaversa psixologik amaliyat soxasida axborotlarni qabul qilish va saralashga to'g'ri yondoshish masalalariga oid xizmat ko'rsatishni ham yo'lga qo'yish lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

M.V.Voxidov Umumiy psixologiya. Toshkent 1992 yil.

1. Tigranyan R.A. Stress i yego znachenie dlya organizma. –M., 1998
2. Xaydarov F., Jo'raev N. Stress yoki ruhiy muvozanatni saqlash osonmi? – Т.,

1997 Abduazimov O. Ommaviy axborot vositalari – fuqarolik jamiyatini barpo etish omili. –Toshkent: Akademiya, 2008 98 b.

3. Kenjaboyev A.T. Axborotlashtirish milliy tizimini shakllantirish muammolari. – Toshkent: Ibn-Sino, 2004. – 252 b.
4. Yoqubova M. Axborot texnologiyalarining falsafiy asoslari. /Uslubiy qo'llanma. Toshkent: Star – Poligraf.